



## XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 24 - iyul

I-61-120-14-220-K/23

Yangi Hayot tuman hokimligi

### **Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-55-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish Dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-son qarorida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash maqsadida xalq deputatlari Yangi Hayot tumani Kengashi,

### **QAROR QILADI:**

1. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Tashpulatovning “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sektor rahbarlari (X.Inogamov, A.Azimov, A.Sarabekov, A.Ibragimov), tuman hokimining birinchi o‘rinbosarlari (X.Tashpulatov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikga ko‘maklashish bo‘limi (O.Xushboqov), Kambag‘allikni qisqartirish va mahallani qo‘llab-quvvatlash masalalari bo‘yicha bo‘limi (A.Jumayev) mahallalardagi hokim yordamchilari hamda mutasaddi tashkilotlari bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda Oilaviy tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borish;

aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilish borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirish;

dasturlar doirasidagi loyihalarni moliyalashtirishda shaffof mexanizm yaratish,

fuqarolarga kredit ajratilishida ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olish, qaror qabul qilish tizimining har bir bosqichini nazorat qilish, dasturdagi o'z faoliyatini baholash hamda fuqarolarning tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirishni ta'minlash;

hokim yordamchilari bilan birgalikda ishlab chiqarish, servis, tikuvchilik yo'nalishlarida aholining bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish choralari ko'rish, dastur doirasida berilayotgan tavsiyanomalariga asosan moliyalashtirilgan loyihalarni har oy yakuni bo'yicha maqsadlilikini nazorat qilish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini belgilangan muddatlarda kechiktirmasdan, sifatli ko'rib chiqish va o'z faoliyatiga aloqador bo'lgan masalalarni ijobiy hal etishda barcha choralarni safarbar etish;

aholi orasida dasturlar doirasida ilgari ajratilgan kredit mablag'lari bo'yicha mavjud qarzdorligi to'liq so'ndirilmagan shuningdek, avval ajratilgan kreditlardan maqsadsiz foydalangan qarz oluvchilar bilan tushuntirish ishlarini amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (X.Tashpulatov) Kambag'allikni qisqartirish va mahallani qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha bo'limi (A.Jumayev) bilan birgalikda:

dasturlar ijrosini, shu jumladan ajratilgan kreditlar samaradorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida har chorak yakuni bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot kiritish;

dasturlar doirasida tumanga ajratilgan mablag'larning yillik va oylik limitlarini mahallalar kesimida taqsimlash, amalga oshirilayotgan loyihalarning istiqboli va qo'shimcha ish o'rinlari yaratishga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, mahallalar limitini har oyning o'ninchi sanasiga qadar qayta ko'rib chiqilishi ta'minlansin.

4. Kambag'allikni qisqartirish va mahallani qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha bo'limi (A.Jumayev) tomonidan kambag'allikni qisqartirish va aholining bandligiga ko'maklashish masalasida hokim yordamchilari bilan birgalikda tumanda kichik biznesni rivojlantirish, moliyaviy va nomoliyaviy xizmatlardan keng foydalanish, tumanda faoliyat yuritayotgan komunal tashkilotlar, xizmat ko'rsatish sub'ektlari va boshqa turdagi korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorliklar kuchaytirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya (B.Raximov) zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Yangihayot  
tuman Kengashi raisi**



**X.Inogamov**